5. Курбанова, Г., & Курбанова, Ш. (2023). Интерактивные образовательные технологии в развитии коммуникативной компетентности студентов по русскому языку. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 575-580.

6. Berdiyeva, S. (2023). Zamonaviy adabiyotda non-ficshning o ‘ziga hosligi. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(1), 59-62.

7. Умаров, А. А. (2023). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АУДИОВИЗУАЛЬНЫХ СРЕДСТВ НА УРОКАХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ. Научный Фокус, 1(7), 185-189.

8. Нурмамаатов, Б. Б., & Миротин, О. Д. (2023, June). РОЛЬ ЛИТЕРАТУРЫ В ЭПОХУ ЦИФРОВОЙ РЕВОЛЮЦИИ. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 6, pp. 167-173).

9. Умаров, А. А., & Вохобов, Т. Т. (2023). СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО. Научный Фокус, 1(7), 181-184.

10. — Смирнов, В. В. (2012). Введение в литературоведение: Учебное пособие. Флинта: Наука.

11. Умаров, А. А. (2023, May). ОЦЕНКА УРОВНЯ ВЛАДЕНИЯ РУССКИМ ЯЗЫКОМ В УЗБЕКСКИХ ШКОЛАХ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 2, No. 14, pp. 130-134).

12. Шавилова, Н. (2024). TECHNOLOGIES IN TEACHING RUSSIAN LANGUAGE IN A NON-LINGUISTIC UNIVERSITY. Modern Science and Research, 3(2), 230-234.

13. Оромидинова, Д. (2023). ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ДРЕВНЕГРЕЧЕСКИХ МИФОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ МИФА О МИНОТАВРЕ). Экономика и социум, (6-1 (109)), 933-936.

KONSTITUTSIYANING OZGARISHI INSON HUQUQLARINI YANADA HIMOYA QILISHINI TA'MINLADIMI?

Tirkasheva Umida O'ktam qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 1-kurs talabasi

@uktamovnaumida873gmail.com

Biz mavzuni boshlashdan oldin inson huquqlari o'zi nima va unga qanday erishilganligini bilib olsak maqsadga mos bo'ladi. Inson huquqlari bu olimlarning takitlashicha Inson huquqlari bu- shaxsning hayotiy ehtiyojlari, yashashi, kamol topishi, davlat va jamiyat, boshqaa shaxslar bilan bo'lgan aloqasi uchun muhim bo'lgan elementdir. Dast avval inson huquqlarining dastlabki ko'rinishlari paydo bo'lgan bular fuqarolik va siyosiy huquqlar edi, keyinchalik esa zaruriyat tug'ilganligi boyis insoning iqtisodiy huquqlari ham paydo bo'ldi. Bu borada biz qadimgi tariximizga alohida to'xtalmask menimcha biz xatoga yo'l qo'ygan hisoblanamiz, bu bilan men nima demoqchiman albatta tarixga nazar tashlasak qadim zamonlarda ko'plab davlatlarda qullar mehnatidan foydalanishgan va tabiiyki ularning huquqlari bo'lmagan bo'lgan taqdirda ham ularga rioya qilinmagan, aynan shu sababli ham inson huquqlari va inson huquqlarini himoya qilish uchun deyarli butun dunyoda kurash olib borilgan va bular qonunlar , deklaratsiyalar bilan belgilab qo'yilgan, bunga yaqqol misol qilib "Erkinlikning buyuk xartiyasi" (1215-yil), "Huquqlar to'g'risidagi bill" (1689-yil), " Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi" (1948-yil), "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro Pakt" (1996-yil) va boshqa shu kabi jahon hujjatlar bilan aniq belgilab qo'yildi. Jumladan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ga to'xtalib o'tishimiz maqsadga mos bo'ladi, ushbu hujjat 1948-yilning 10-dekabrda BMTning Bosh Assambleyasining 217 A(III) ko'rsatmasi asosida qabul qilingan va e'lon qilingan u 30 moddadan iborat bo'lib dastlab. O'zbekiston ham ushbu deklaratsiyani qabul qilgan. Bu borada nafaqat butun jahon balki O'zbekistonda ham inson huquqlari va inson huquqlarini himoya qilish borasida ko'plab chora tadbirlar belgilab qo'yilgan bunga misol qilib esa 2023-yilning 30-aprelida Konstitutsiyamizga kiritilgan yangi normalarni keltirsak bo'ladi, deyarli

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

butun dunyo tomonidan qabul qilingan qoida “Miranda” qoidasi bizda ham aniq belgilab qo’yildi. Unga ko’ra Konstitutsiyamizning 28-moddasi 3-qismida “Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin” hech kim ularni gapirishga majbur qilishi mumkin emas agar shunday holat yuz bersa bu yuqori darajadagi javobgarliklarga sabab bo’ladi. Bundan tashqari Konstitutsiyaning bir bobi ya’ni VII bobi “shaxsiy huquq va erkinliklari” deb nom olgani ham buning eng muhim masala ekanligini bildiradi ushbu bob qarib 10 moddani o‘z ichiga olib 25-35- moddalardan iborat unda shaxslarning huquqlarini himoya qilish va unga boshqa shaxslarning ham amal qilishini belgilab beradi. 28-moddaning 1-qismida aybsizlik prezumtsiyasi ham belgilab qo’yilgan unga ko’ra “Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo‘li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o‘zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta’minlanad” ya’ni shaxsni aybdor deb faqatgina sud hukmi kuchga kirgandan so’nggina aybdor bo’lishi mumkin va unga kerakli bo’lgan barcha qulayliklar yaratiladi masalan tarjimon hizmati, advokatdan foydalanish kabi bir qancha huquqlarni belgilanganligi va konstitutsiyamizda o’zgarmagan bir norma “ davlat xalq irodasini ifoda etadi” degan normada ham chuqur ma’no borligini hisobga olganda va buning aynan bosh qomusimiz ya’ni Konstitutsiyamizda belgilanishi ham o’ta muhimligidan dalolatdir chunki ushbu holat insonlarning ushbu norma bilan tanishishining muhim asosi sifatida qaraladi. Mamlaktimizda huquqni himoya qilish va uni himoyasini ta’minlash uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar tashkil etilgan bolib ularning asosiy vazifasi huquqlarini va inson huquqlarini himoya qilishdan iborat. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga Oliy Majlis qoshidagi inson huquqlari bo’yicha vakili (ombudsman), inson huquqlari bo’yicha Milliy markaz, prokuratura , ichki ishlar organlari va boshqa shu kabi bir qancha organlarni misol sifatida keltirsak bo’ladi. Va ushbu organlar inson huquqlarini himoya qilishdagi kamarbastalikni amalga oshirmoqda, jumladan Milliy markazning tashkil topganiga 18 yildan oshmoqda va uning inson huquqlarini himoya qilishdagi o’rni judda katta bo’lib 1996-yilda birinchi prezidentimiz Islom Karimov farmoni bilan tashkil etilgan, bundaan tashqari 1996-yilning 13-noyabr kuni qabul qilingan “inson huquqlari bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Milliy markaz faoliyatini tashkil etish masalalari to’g’risida”gi qaror qabul qilindi va

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

Ushbu qaror Milliy markaz faoliyatining tashkiliy-huquqiy asosi hisoblanadi. Jumladan inson huquqlarini va ularning himoyalaniishi, inson huquqlari oliy qadiryatga aylantirish maqsadida 2016-yil saylov oldida prezidentlik nomzodlaridan biri mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan birinchi navbatda sud hokimiyatining mustahkamlanishini ta'minlash g'oyasi ilgari surildi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda qariyb 38 million aholi bo'lib ularning huquqlari va ularning huquqlarini himoya qilish eng yuqori maqsad sifatida baholanadi. Shu sababli ham bu soha nafaqat boshqa bir qator sohani rivojlantirish maqsadida konstitutsiyamizga o'zgartirish kiritildi, yangi taxrirdagi konstitutsiyamizning 1-moddasiga quydagicha norma kiritildi (yani qo'ishmcha kiritildi) “O'zbekiston- boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” ekanligi belgilandi bunda o'z o'rnida boshqaruvning respublika shakli bu davlat hokimiyatining oliy organi bevosita xalq tomonidan saylanishini anglatadi bundan ko'rinib turibdiki mamlakatimizda davlat ma'nfaati emas balki xalq ma'nfaati birinchi o'ringa qo'yilgan. Shuningdek konstitutsiyamizning 28-moddasi 2- qismida “Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak.” Agarda davlat organlari va inson o'rtasida ziddiyatli vaziyatlar yuzaga keladigan bo'lsa ularning inson huquqlari foydasiga hal bo'lishi aniq belgilab qo'yildi, masalan agarda insonga sud tomonidan jarim tayinlanmoqchi bo'lsa ammo tegishli hujjatlar mavjud bo'lmasa bu inson foydasiga hal bo'lishini ko'rsatadi. Yana bir bor konstitutsiyaga nazar tashlasak bosh qonimimizning 20-moddasi 2-qismidagi ushbu ikkala norma “Inson o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart”, “ Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas” o'zgarishsiz qoldi ushbu normalarning mazmuni shundan iboratki davlat insonga huquq va uni himoya qilishga imkon berar ekan qaysidir ma'nda o'zi ham ma'lum bir normalarga amal qilishini talab qiladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga fuqarolar ariza, taklif va shikoyat bilan murojaat qilishlari mumkin, bundan tashqari huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hududiy tarmoqlari ham mavjud, shu

jumladan ushbu organlarning maxsus veb saytlari ham majud masalan prokuraturaning (<http://www.prokuratura.uz/>) kabi bir qancha saytlar mavjud va fuqarolar huquqlari buzilishi ustidan shu saytlar orqali shikoyat, aeiza yoki taklif berishlari mumkin.

Foydalanilgan manbaalar

1. <https://kun.uz/uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish>
2. <https://prokuratura.uz/>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson_huquqlari
4. <http://www.insonhuquqlari.uz/>
5. <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>



Research Science and
Innovation House

Plastik kartadan pulingiz o'g'irlanmasligi uchun nima qilish kerak? Amaliy tavsiyalar

Tursunboyeva Dinora Islom qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Abstrakt

Maqolada O'zbekistonda plastik kartalarning ahamiyati qo'llanilishi va qulayliklari haqida ma'lumot berilgan. Plastik kartadagi pullarning xavfsizlik darajasi turli tomondan o'rganilgan. Va eng muhimi kartadan pul o'g'irlanmasligi uchun kerakli amaliy tavsiyalar berib o'tilgan..

Kalit so'zlar: Plastik karta, bankomat, xavf, chegirma, Vizitkalar, raqamlash tizimi, emitent identifikatorlar.

Kirish

Plastik kartalar bugungi kunda moliyaviy operatsiyalarda keng qo'llaniladi. Ular debet kartalari, kredit kartalari va bankomat kartalari kabi turli shakllarda bo'lishi mumkin. Plastik kartalar naqd pulni olib yurish zaruratini kamaytiradigan xavfsiz va oson to'lov usulini taklif etadi. Ular, shuningdek, atrof-muhitga kamroq zarar etkazadigan alternativ sifatida ajralib turadi.

Plastik karta - bu mexanik va termal ta'sirlarga chidamli bo'lgan maxsus plastmassadan tayyorlangan standart o'lchamdagi plastinkadir (ko'pincha $54 \times 86 \times 0,76$ mm). Kartochkalar maqsadi, funktsional va texnik xususiyatlari bilan farqlanadi.

Plastik kartalar ishlatilishi (bitta karta uchun bir nechta ilovalar mavjud):

- ularning egasini aniqlash;
- to'lov vositalarining analogi sifatida;
- sodiqlik dasturlarida ishtirok etish imkonini beradi (mini-kartalar / kalitlar, sovg'a, chegirma, reklama / klub, chiptalar / sertifikatlar, tayyor mahsulotlar uchun sifat sertifikatlari, kontaktsiz kartalar va boshqalar);

Ushbu kartalar plastik kartochkalarining jismoniy xususiyatlaridan tortib kartaning o'lchamiga qadar va u yoki bu tarzda kartada joylashtirilgan ma'lumotlarning

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

mazmuniga qadar plastik kartalarning deyarli barcha xususiyatlarini belgilaydigan standartlar bilan birlashtirilgan:

-ISO-7810 "Identifikatsiya kartalari - jismoniy xususiyatlar";

-ISO-7811 "Identifikatsiya kartalari - qayd etish usullari";

-ISO-7812 “Identifikatsiya kartalari – raqamlash tizimi va emitent identifikatorlarini ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi” (5 qism);

-ISO-7813 "Identifikatsiya kartalari - moliyaviy operatsiyalar uchun kartalar";

-ISO-4909 "Bank kartalari - magnit chiziqning uchinchi treki tarkibi";

-ISO-7816 "Identifikatsiya kartalari - kontaktli mikrochip kartalari" (6 qism).

Maqsadlari bo'yicha plastik kartochkalar turlari identifikatsiya kartalari :

-pasportlar, haydovchilik guvohnomalari, avtomashinalarni ro'yxatdan o'tkazish ijtimoiy kartalar (masalan, Moskvadagi talabanning ijtimoiy kartasi) shaxsiy guvohnomalar (turli odamlar guruhlari uchun, masalan, saylovchilar, kambag'allar va boshqalar) P.)

-ovoz berish uchun deputatlarning kartochkalari

Vizitkalar sodiqlik plastik kartalari (sodiqlik dasturining turiga qarab tayinlanadi): chegirma kartalari, sovg'a sertifikatlari, klub kartalari, jamg'arib boriladigan / bonus - plastik kartalari

-bank to'lov kartalari

-kredit kartalari

-debet kartalari

-bojxona kartalari

-aloqa kartalari

SIM-kartalar (faqat dastlabki SIM-kartalar ISO 7810 standartiga muvofiq to'liq hajmda ishlab chiqarilgan)

-USIM kartalari

-R-UIM kartalari

-taksofon kartalari

-oldindan to'langan kartalar

-skretch kartalari . Aloqa xizmatlarini to'lash uchun xizmat qiladi.

-tarif kartalari (elektron sayohat kartasi)

-yoqilg'i kartalari

-qo'ng'iroq kartalari (simli, simsiz va IP-telefoniya)

-raqamli televideniye kirish kartalari

- elektr to'lov kartalari
- to'xtash joyi to'lov kartalari
- kompyuter o'yini uchun faollashtirish kalitlari bilan kartalar
- Mediasiz raqamli kartalar
- shtrix-kod kartalari
- magnit chizikli kartalar, magnit chiziqda o'nlab baytlarni saqlaydigan kartalar smart-kartalar - chipli kartalar (taxminan 32 KB o'rnatilgan xotiraga ega mikroprotsessor), ular aloqa usuliga qarab quyidagilarga ajratiladi:

- kontaktsiz kartalar (RFID, masalan, NFC)
- kontakt kartalari (ISO/IEC 7810, ISO/IEC 7816 va boshqalar)
- birlashtirilgan magnit-chipli kartalar, ham chip, ham magnit chiziqni o'z ichiga oladi

Kartalarni shaxsiylashtirish turlari

- shtrix-kod - shtrixlar ko'rinishida kodlangan harf-raqam ma'lumotlarini kartaga chizish;

- Bo'rttirma (shtamplash) - plastik kartochka yuzasiga bo'rttirma belgilar ko'rinishidagi harf-raqamli ma'lumotlarni keyinchalik bo'yash mumkin bo'lgan holda qo'llash. Ma'lumotlarni mexanik nusxa ko'chirish imkoniyatini beradi (masalan, imprinter yordamida). Belgilarni bo'rttirish faqat kartaning gorizontaal yo'nalishi bilan mumkin. Bo'rttirma ikki turdagi shriftlarda amalga oshiriladi: 4,5 mm balandlikda - katta (faqat raqamlar); 3 mm balandlikda - kichik (raqamlar va harflar).

- indent bosib chiqarish - bu plastik karta yuzasiga tekis belgilar ko'rinishidagi harf-raqamli ma'lumotlarni keyingi kiritish (bo'yash) bilan qo'llash. Faqat "elektron" foydalanish uchun mo'ljallangan kartalar uchun odatiy;

- magnit chiziq - kartaga magnit saqlovchi vositani keyinchalik ma'lumotlarni yozib olish bilan chizish; yozish uchun uchta trekka ega: biri harf-raqamli ma'lumot uchun va ikkita trek raqamlar uchun.

- imzo paneli - karta yuzasiga qo'llaniladigan maxsus qatlam, sizga yozuvlar qo'yish imkonini beradi;

- skretch (scratch)-panel - himoyalangan ma'lumotlar (pin-kod, yutuq so'zi, hisobni to'ldirish kodi va boshqalar) ustidan karta yuzasiga qo'llaniladigan shaffof bo'lmagan himoya qatlami. d.);

- chip - kartaga o'rnatilgan mikroprotsessorga asoslangan axborot tashuvchisi. Yoki prokladkaga ega yoki radio aloqasidan (RFID) foydalanadi.

Kartani himoya qilish turlari

- gologramma
- mikroskript, iz elementlari
- ustiga bosib chiqarish
- guilloche naqshlari
- iris nashri
- UV ko'rinadigan bo'yoqlar

Bo'rttirma (shtamplash) - bo'rttirma zonalarida joylashtirilgan ma'lumotlar vizual o'qish va optik aniqlash, shuningdek, soxtalashtirishdan himoya qilish usuli sifatida kontaktli nusxa ko'chirish (ya'ni, bosma nashrlardan foydalanish) orqali nashrlarni olish uchun mo'ljallangan;

- golografik laminatsiya

-egasining asl imzosi - plastik kartaning orqa tomonida joylashgan imzo tasmasi qalbakilashtirishdan qo'shimcha himoya vazifasini o'taydi.

kartaning murakkab nostandart shakli - bu juda kam uchraydigan hodisa, zımbalama kalıplarının yuqori narxi tufayli u ko'pincha nostandart plastik mahsulotlarni, masalan, plastik kalit halqalarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan tashkilotlarda qo'llaniladi.

-nostandart sirt dizayni (himoya elementlarining mikrogravvyurasi bilan laminatsiya oynalaridan foydalanish, maxsus plastmassa turlariga, masalan, lentikulyarlarga bosish), teksturali laminatsiya plyonkalaridan foydalanish

Plastik kartadagi pullarni firibgarlardan qanday himoyalash mumkin?

IIV ma'lumotiga ko'ra, plastik kartalardan pul o'g'irlash va firibgarlik holatlari hozirgi vaqtda eng ko'p sodir etiladigan jinoyatlar qatoriga kiradi. 2021-yilda 2700 dan ortiq o'zbekistonlik internet firibgarlari qurboni bo'lgan.

Odamlarni aldash va ularning bank kartalaridan pul o'g'irlashning turli usullari mavjud: bankomat orqali operatsiyalarni amalga oshirish paytida kodni ko'rib olish va kartani o'g'irlashdan tortib, dasturiy ta'minotga xakerlik hujumlarini uyushtirishgacha. Jinoyatchilar pul o'g'irlashning eski usullari ish bermay qo'yganda yangi usullarini o'ylab topishadi. Shuning uchun firibgarlar qo'llaydigan asosiy usullardan xabardor bo'lish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish juda muhimdir.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

Bank kartalari hayotimizga mustahkam kirib kelganligi sababli, xavfsizlik bo'yicha mutaxassislar barcha karta egalariga o'zlarining bank kartalari va uning ma'lumotlarini hamyondagi naqd puldan ham qat'iyroq himoya qilishni maslahat berishadi.

Biroq bankning axborot xavfsizligi tizimlariga qaramasdan, firibgarlik operatsiyalari natijasida kartadagi pul mablag'larini o'g'irlash ehtimoli mavjud. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun mablag'laringiz bilan noqonuniy operatsiyalar amalga oshirilishidan himoyalaydigan qoidalarga amal qiling:

1-qoida. Parol va kodlaringizni hech kimga aytmang.

Kartadagi PIN-kod hech kimga oshkor etilmaydigan sirdir. Uni telefonda saqlash yoki kartaga yozib qo'yish mumkin emas. Bankomat yoki do'konda PIN-kodni kiritishda klaviaturani qo'l bilan yopish kerak.

Shuningdek, VISA kabi xalqaro kartalarning orqa tomonida CVC / CVV kodi - uchta maxfiy raqam mavjud. Ular onlayn xaridlar amalga oshirishda ishlatiladi. Firibgarlar sizning kartangizdan pul o'g'irlashini oldini olish uchun CVC / CVV kodini hech kimga ko'rsatmang va aytmang.

Bank xodimlari hech qachon kartadagi kodni, PIN-kodni, shuningdek, bank tomonidan yuborilgan SMS- kodlarni so'ramaydi. Faqat firibgarlar maxfiy kodlar bilan qiziqadi. Firibgarlar o'zlarini go'yoki sizning kartangizga pul o'tkazmoqchi bo'lgan tanishlaringiz deb ko'rsatishi ham mumkin. Lekin pul o'tkazish uchun ular karta raqami, uning amal qilish muddati yoki CVC/CVV kodini so'rashadi. Bu ham firibgarlik. Pul o'tkazish uchun karta raqamini o'zi kifoya. Boshqa ma'lumotlar - amal qilish muddati, egasining ismi yoki kodi - talab qilinmaydi.

2-qoida. Karta bo'yicha SMS ogohlantirish xizmatini ulang.

Bu xizmat kartadagi barcha harakatlar haqida bankdan SMS-xabarni darhol olish uchun kerak. Masalan, karta orqali to'lanadigan barcha xaridlar haqida ma'lumot olish

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

uchun. Ushbu xabarlar juda diqqat bilan o'qilishi kerak. Agar siz amalga oshirmagan xarid haqida xabar olgan bo'lsangiz, ehtimol firibgar kartadan foydalangan.

Siz darhol bankka qo'ng'iroq qilishingiz, shubhali SMS haqida xabar berishingiz va kartani blokirovka qilishni so'rashingiz kerak. Bankning ishonch telefoni raqami kartaning orqa tomonida yoziladi. Ushbu raqamni telefoningizdagi kontaktlar ro'yxatiga kiritib qo'ying va karta bilan bog'liq muammolar bo'lsa, shu raqamga qo'ng'iroq qiling.

3-qoida. Xavfsiz saytlarni tanlang.

Firibgarlar mashhur onlayn resurslarning dublikat saytlarini yaratadilar. Masalan, ular bank veb-sayti yoki mobil ilovasining nusxasini yaratishlari mumkin. Agar siz u erda parollar, kodlar, karta ma'lumotlarini kiritsangiz, ular firibgarlarning qo'lga tushadi.

Saytni qanday tekshirish mumkin?

Odatda firibgarlar tomonidan yaratilgan saytlar nomi ba'zi bir taniqli sayt nomi bilan deyarli bir xil bo'ladi, faqat bir nechta harfda farq qilishi mumkin. Shuning uchun siz har doim brauzeringizning manzil satrini diqqat bilan tekshirishingiz kerak.

Resurs manziliga e'tibor bering. Xavfsiz sayt <https://> bilan boshlanadi. Xavfsiz saytning manzil satrining oxirida yopiq qulf belgisi mavjud. Agar sayt xavfsiz bo'lmasa, unda shaxsiy ma'lumotlar va karta ma'lumotlarini kiritish mumkin emas.

Har qanday saytga karta yoki pasport ma'lumotlarini kiritishdan oldin uni diqqat bilan o'rganish, internetdagi sharhlarni maqsadga muvofiq bo'ladi.

4-qoida. SMS orqali kelgan shubhali havolalarni bosmang.

Hech qachon notanishlardan kelgan elektron pochta va SMSlardagi havolalarni bosmang. Ko'pincha, bunday havolalar qandaydir pul yutuqlari, yutuqli tanlov

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

o'tkazilishi yoki mukofot to'lash haqida xabar bilan yuboriladi. Bilingki, agar bunday hollarda sizning kartangiz ma'lumotlari talab qilinsa, bular, albatta, firibgarlardir.

5-qoida. Ma'lumotlarni qayta-qayta tekshiring.

Firibgarlar haqiqatan ham ularga darhol ishonishingizga umid qilishadi. Ma'lumotni ikki marta tekshirishga vaqt bermaslik uchun ular sizni ataylab shoshtirishadi. Ammo pul masalasida shoshilmaslik kerak.

Firibgarlar quyidagi sxemalardan ham foydalanadilar:

Notanish odam qo'ng'iroq qiladi va sizning biror qarindoshingiz yoki do'stingiz muammoga duch kelganini aytadi. Firibgar ularga yordam berish uchun sizdan zudlik bilan pul o'tkazishingizni so'raydi. U sizni qo'rqib, aldanib qolishingizga umid qiladi. Pul o'tkazishga shoshilmang: avval qarindoshlaringizga yoki do'stlaringizga qo'ng'iroq qilib xabar oling.

Sizga pul o'tkazilganligi haqida SMS keladi. Xabar bankdan kelgan xabarga o'xshaydi. Shu zahoti notanish odam sizga qo'ng'iroq qilib, pulni noto'g'ri o'tkazganini aytadi va ularni qaytarishni so'raydi. Ehtimol, bu firibgar, sizga hech qanday pul kelmagan va "bankdan" kelgan SMS esa soxta. Bankka qo'ng'iroq qiling va hisobingizga pul tushganligi haqida so'rang.

Shuni unutmangki, firibgarlar doimiy ravishda aldashning yangi sxemalarini ixtiro qilishadi. Hech qanday holatda kartadagi maxfiy ma'lumotlarni hech kimga - hatto o'zini bank xodimi sifatida tanishtirgan kishiga ham bermang. Vaziyatni tushunmaguningizcha hech qachon pul o'tkazmang. Bankning rasmiy ishonch telefoni raqamiga o'zingiz qo'ng'iroq qiling va sizni qiziqtirgan ma'lumotlarni aniqlang. Asosiysi - shoshilmang.

Xulosa

Plastik kartangiz xavfsizligi uchun ba'zi ehtiyot choralarini ko'rishingiz mumkin:

1. Kartangizning PIN (shaxsiy identifikatsiya raqami) kodini hech kimga bermang va uni xavfsiz joyda saqlamang.
2. Agar siz kartangizni yo'qotib qo'ysangiz yoki u o'g'irlansa, darhol bankingizga xabar bering va kartangizni blokirovka qiling.
3. Onlayn xarid qilish uchun xavfsiz saytlarni tanlang va kartangiz ma'lumotlarini baham ko'rishda ehtiyot bo'ling.
4. Bankomatlardan foydalanayotganda, agar atrofda shubhali vaziyatlar bo'lsa, ehtiyot bo'ling va bankomatlardagi kartani o'qish moslamalari kartangiz nusxalanishiga ishonchli ekanligiga ishonch hosil qiling.
5. Ruxsatsiz tranzaksiyalarni payqash uchun kredit kartangizdan ko'chirmalarni muntazam tekshirib turing va ularni darhol bankingizga xabar qiling.

Ushbu chora-tadbirlar plastik kartangiz xavfsizligini oshirishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Plastik_kartochkalar,
2. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/iqtisodiyot/plastik-kartochkalar-haqida-umumiy-ma-lumot>

Research Science and
Innovation House

IQTISODIYOTNING REAL SEKTOR KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Shaymatov Elyor Shaxobiddin o‘g‘li
Toshkent moliya instituti

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Real sektor korxonalarida investitsion loyihalarni moliyalashtirishni iqtisodiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etsa, tahlil natijalariga asoslangan xulosalarni shakllantirish orqali korxonaning kelgusi yillarga mo‘ljallangan strategik qarorlarni qabul qilishda foydalanish mumkin. Sifatli o‘tkazilgan tahlil natijasida korxonada faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli darajadagi xavf-xatar va risklarni oldindan ko‘ra olish, aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan strategik qarorlar qabul qilish, risklar darajasini kamaytirish maqsadida turli faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha diversifikatsiyalarni amalga oshirish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi. Bu tadbirlar esa oxiroqibat korxonalarini inqirozli holatlarda ko‘rishi mumkin bo‘lgan turli talafotlar darajasini qisqartirishga va bankrot bo‘lishning oldini olishga xizmat qiladi.

Tadqiqot mavzusi doirasidagi mavjud muommolar. Investitsiya faoliyatining bunday majmuaviy va chambarchas bog‘langan tarkibiy tuzilmasi o‘z o‘rnida korxonada uchun murakkab iqtisodiy tizim hisoblanadi. Shuning uchun zamonaviy iqtisodchi olimlar korxonalar iqtisodiy faoliyatini tahlilini amalga oshirish jarayonida tizimli yondashuvdan foydalanishadi. Chunki korxonada doirasida tahlilni amalga oshirish jarayonida iqtisodiy tahlil metodlaridan, xo‘jalik yuritish faoliyatini bilan bog‘liq bo‘lgan barcha aloqalarni tahlil qilishda foydalanishadi va butun bir iqtisodiy tizimni tahlil qilish jarayoni bilan uzviy bog‘liqligidan dalolat beradi.

Real sektor korxonalarining sof foydasi ortishi bilan ularning investitsiya faoliyatini moliyalashtirishga zarur bo‘lgan mablag‘lar ortishi kuzatiladi. Umuman, korxonalarining mavjud mablag‘larini (investitsiyalar) yo‘naltirish ob‘ekti quyidagilar hisoblanadi:

- yangi uskuna, jihozlar, texnika vositalarini sotib olish va o‘rnatish;
- yangi innovatsion g‘oyalarni moliyalashtirish;
- yangi bino-inshootlar qurish va foydalanishga topshirish;

- asosiy fondlarni ta'mirlash, yangilash va qayta qurollantirish;
- mahsulot assortimentini ko'paytirish va yangi bozorlarni zabt etish;
- kadrlar malakasini davriy ravishda oshirib borish.

Sanoat korxonalarini investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda investitsiya faoliyati va uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Investitsiya faoliyati faqat investitsiyalarni amalga oshirish jarayonlari bilan bog'liq faoliyat hisoblanadi. Investitsiya faoliyati uchun nisbatan katta miqdordagi mablag'larni sarflash, foydaga yoki boshqa foydali samaraga ega bo'lishda muhimdir.

Demak, O'zbekiston iqtisodiyotining taraqqiyotini ta'minlashda sanoat korxonalariga investitsiyalarni yo'naltirish muhim hisoblanib, eng avvalo, iqtisodiyotni intensiv rivojlantirish asosida va yangi texnika-texnologiyalar jalb qilish hamda o'zlashtirish negizida rivojlantirish bilan ifodalanadi.

Mamlakatimizda sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda investitsiya manbalari (korxonaning o'z mablag'lari) yetishmasligi kuzatiladi. Korxonalarining moliyaviy natijalarining ijobiy emasligi zamirida korxonalarining moliyaviy ahvoli yomonlashadi, natijada, ular investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda tashqi moliyalashtirish manbalariga ehtiyoj sezadi. Sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini moliyalashtirishga mablag'larni jalb qilish shartlaridan biri investitsiya borasidagi hamkorlikda orttirilgan tajribani hisobga olgan holda investitsiyalarning tabiiy oqimini ko'paytirish hisoblanadi. Buning uchun mamlakatda investitsiya muhiti jozibadorligi va korxonalarining ichki investitsiya imkoniyatlarini oshirishning zarur choralari ko'rilishi lozim. Bu esa korxonalarining investitsiya faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda o'ziga xos mexanizmning yaratilishiga zamin yaratadi.

Sanoat korxonalarini investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

- sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda jalb etilgan mablag'lardan foydalanish mexanizmini yaratish;
- sanoat korxonalarini investitsiya faoliyatini moliyalashtirishga mablag'lar jalb qilishda an'anaviy usullar bilan birga, noan'anaviy usullardan (misol uchun venchurli moliyalashtirish) foydalanishga keng sharoitlar yaratish;
- sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda innovatsion vositalardan foydalanish va ularni amalga oshirish.

Xulosa o‘rnida alohida ta’kidlash mumkinki, xo‘jalik yuritishning barcha darajasi biz tomonimizdan amalga oshirilgan maqolada to‘laqonli o‘rganildi. Ma’lumki, qator iqtisodchi olimlar tomonidan investitsiyalarni alohida olingan tahlili biz tomonimizdan amalga oshirilgan investitsiya faoliyati kompleks iqtisodiy tahlilini yuqori tartibda tizimlashtirishimiz uchun asos vazifasini o‘tadi.

Muommalarni hal qilish usullari.

Ta’kidlash joizki, tijorat banklarining real sektor korxonalarini moliyalashtirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

- yuridik va jismoniy shahslarni bo‘sh pul mablag‘larini bank depozitlariga jalb etish tadbirlarini kengaytirish;

- mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bank moliya tizimining barqaror faoliyat yuritishiga bog‘liqdir. Negaki, banklarning investitsion faolligini, xususan, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash bilan bog‘liq investitsiya loyihalarini moliyalashdagi ahamiyatini oshirish, bankrot holatidagi eal sektor korxonalarini moliyaviy sog‘lomlashtirish va ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklashdagi ishtirokini yanada kuchaytirish;

- aholi bandligini oshirishni rag‘batlantirish maqsadida eal sektor korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish borasidagi vazifalar ijrosini ta’minlash;

Yuqoridagi vazifalarni bank kredit faoliyatiga joriy etilishi iqtisodiyotning real sektorini kreditlash jarayonini, kreditlash samaradorligini yaxshilash borasida va banklarning kreditlash amaliyotini takomillashtirishga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi degan fikrni bildiramiz.

Shu o‘rinda ta’kidlash zarurki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmoniga muvofiq bank tizimi va iqtisodiyotning real sektoridagi davlat ulushi mavjud korxonalarni o‘zaro muvofiq ravishda isloh qilishni ta’minlash, banklar tomonidan davlat korxonalari va tashkilotlari faoliyatini transformatsiya qilishda tijorat asosida faol ishtirok etish, real sektor va moliya sektoridagi o‘zgarishlar uyg‘un tarzda kechishini ta’minlash belgilaab qo‘yilgan.

Chunki, hozirgi kunda jahonning ko‘plab mamlakatlari bank tizimida turli tashqi va ichki salbiy omillar natijasida kredit hamda valyuta risklari oshib, kredit institutlari

moliyaviy holatining yomonlashishiga, ularning kredit portfelida muammoli deya tasniflanadigan kreditlar hajmining oshishiga olib kelgan bir vaqtda, respublikamizda bunday salbiy holatlarning oldi olinib, bank tizimining barqaror faoliyat ko'rsatishi ta'minlanoqda.

Bank muassasalari investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga mablag' ajratib, kredit bergan vaqtdan boshlab qarz oluvchining kreditga layoqatliligini tahlil qilish, kreditning maqsadli ishlatilishi ustidan nazoratni, ya'ni loyihani moliyalashtirishning monitoringini olib borishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosalar, taklif va tavsiyalar. Real sektor tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiya hajmini yanada oshirish, investorlar yangidan yangi investitsion loyihalarni taklif qilish, real sektor rivojida innovatsiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllantirish va investitsiyalarni yo'naltirish, investorlar faoliyatining huquqiy himoyasini takomillashtirish, investitsiyalarni qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalariga jalb qilish mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyotning real sektor korxonalarida investitsion loyihalarni moliyalashtirish masalalari yuzasidan quyidagi xulosalarga keldik:

birinchidan, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga iqtisodiyot real sektor korxonalarini investitsion faoliyatini rivojlantirish orqali erishiladi. Investitsiyalarni real sektor korxonalarini moliyalashtirishga yo'naltirish va ularning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi;

ikkinchidan, xorijiy investitsiyalarni real sektor korxonalarini moliyaviy ta'minotini mustahkamlashda olib borayotgan faoliyatlari iqtisodiyotni rivojlanmagan tarmoqlarini moliyalashtirishda muammolari mavjudligi ko'rsatadi;

uchinchidan, real sektor korxonalarini aniq, puxta ishlab chiqilgan investitsion loyihalarini mavjud emasligi, asoslanmagan loyihalarni amaliyotga joriy qilinishi ularning moliyaviy barqarorligini pasaytiradi va olingan kreditlarni qaytarishda muammolar ketirib chiqaradi.

Fikrimizcha, milliy iqtisodiyotning real sektoridagi mavjud sharoit va imkoniyatlarni hisobga olgan holda, real sektor korxonalarida investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur, shu jumladan:

- respublikamiz tijorat banklarida kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarini aktivlarni o‘rtacha miqdoriga nisbatan darajasini 0,5% dan oshishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim. Buning uchun birinchidan, tasniflangan kreditlarning umumiy hajmida yaxshi va standart kreditlarning salmog‘ini pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik va ikkinchidan, tijorat banklari aktivlarining barqaror o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash lozim.

- eksportni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish - bu borada an‘anaviy eksport yo‘nalishlaridan tushgan daromadlarni yangi texnologiyalarga va yangi sotuv bozorlarini egallashga qaratilgan investitsiyalarga aylantirish mexanizmini qayta ishlash jiddiy samara beradi;

- ishlab chiqaruvchilarni jahonning eng yaxshi namunalariga yo‘naltiradigan xalqaro sertifikatlash va standartlash hamda mahsulotni attestatsiyadan o‘tkazish tizimini qayta ko‘rib chiqish orqali mahsulot sifatini baholash tizimini o‘zgartirish. Bu borada mahsulotning muayyan turlarini sertifikatlash bo‘yicha xalqaro tizim va bitimlarni hisobga olgan holda olib borish tartibini belgilovchi me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shernaev, A. A. (2021). Sog‘liqni saqlash tizimini moliyalashtirishda mahalliybyudjetlarning rolini oshirish masalalari. *Интернаука*, (20-7), 58-60.
2. Шернаев, А. А. (2020). Налоговое планирование в системе обеспечения финансовой безопасности в акционерных обществах. *Интернаука*, (12-2), 43-45.
3. Jumanazarova, Z. J., & Shernayev, A. A. (2020). Budjetdan tashqari jamg‘armalar moliyaviy resurslarini shakllantirish va taqsimlash amaliyotini takomillashtirish yo‘nalishlari. *Студенческий вестник*, (1-6), 87-89.
4. Shernaev, A. A. (2020). On the issue of the efficiency of taxation of joint stock companies. *Экономика и бизнес: теория и практика*, (9-2), 149-152.
5. Шернаев, А. А. (2020). Совершенствование налогового планирования в акционерных обществах-как механизм повышения эффективности финансового менеджмента. *Экономика и общество*, (4), 20-28.
6. Xamdamova, R. R. Q., & Shernayev, A. A. (2022). Xalqaro moliya bozoridagi operatsiyalarning rivojlanish istiqbollari. *Science and Education*, 3(1), 1111-1116.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 4. April 2024

Фамилияси	Шайматов
Исми	Элёр
Шарифи	Шахобиддин угли
Иш/ўқиш жойи	Тошкент молия институти
Эгаллаб турган лавозими	Магистратура булими талабаси
Илмий даражаси	
Илмий унвони	
Телефон рақами (мобил)	+998935229040
e-mail	shaymatovelyor@gmail.com
Материалнинг номи	Реал сектори корхоналарида инвестиция фаолиятини ривожлантириш
Шўба рақами ва номи	3

**Research Science and
Innovation House**

Biz zo‘ravonlikka qarshimiz

NORMURODOVA RA‘NO O‘RAZALIEVNA

Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani

73 maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatda maktab yoshidagi bolalarga nisbatan zo‘ravonlik va shafqatsiz munosabat muammosi eng dolzarb muammolardan biridir.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, usullar, psixologik yechim, muammo, xavfsizlik.

Zamonaviy adabiyotlarda bolalarning alkogolizmi, g‘ayrioddiy xatti-harakatlari, giyohvandlik va jinoyatlarning kelib chiqishida bolaning g‘ayritabiiy rivojlanishiga olib keladigan zo‘ravonlik yotadi. Yoshi tufayli har doim ham qarshilik ko‘rsata olmaydigan bolalarning sog‘lig‘iga xavf tug‘dirishi xavfsiz hayot sharoitlarini ta‘minlash yo‘llarini, ijtimoiy moslashuvga yordam berish usullarini izlashga yordam beradi. Bu faoliyatda maktab psixologlarining ham o‘rni katta. So‘nggi yillarda zo‘ravonlik psixologiyasi mashhurlikka erishdi. D. Levinson, J. Kobrin, R. Lang, E. Miller va boshqalar o‘z asarlarida bu masalani o‘rgandilar. Ko‘pincha, ekspertlar tajribali zo‘ravonlik, insonning kognitiv qobiliyatining pasayishi, uning intellektual va kognitiv qobiliyatlari va natijada, akademik ko‘rsatkichlar va xatti-harakatlarning o‘zgarishi natijasida hissiy buzilishlarni belgilaydilar. Zo‘ravonlikka uchragan bolalarga yordam berishda inqirozga aralashuvning umumiy qabul qilingan formulasi yo‘q. Umuman olganda bola bilan ishlashda rioya qiladigan yordamning ba‘zi umumiy modellarini ko‘rsatish mumkin: 1. Bolalar bilan ishlashda eng samarali yondashuvlardan foydalanish - kognitiv-xulqatvor terapiyasi, vizualizatsiya, art-terapiya, psixodrama. 2. Uch yo‘nalishda maslahat berishning o‘ziga xos usulini tanlash: hissiyotlar bilan ishlash, fikrlar bilan ishlash va xatti-harakatlar bilan ishlash. Bunday holda, tanlov bolaning yoshiga, uning kognitiv rivojlanish darajasiga va u zo‘ravonlik tajribasining qanday namoyon bo‘lishiga bog‘liq - affektiv, xulq-atvor yoki kognitiv nuqtai nazardan. 3. Maslahat vaqtida faol tinglash texnikasidan foydalanishni unutmang. 4. Ma‘lum miqdorda individual ish olib borilgandan so‘ng- Bolani ijtimoiylashtirishga, bolalar o‘rtasida sog‘lom munosabatlarni shakllantirishga va o‘z-

o‘zini hurmat qilishni oshirishga qaratilgan o‘quv mashg‘ulotlari orqali guruh ishiga kiritish kerak. Zo‘ravonlik qurbonlariga psixologik yordam ko‘rsatish. Zo‘ravonlik va shafqatsizlikni boshdan kechirgan bolalar va o‘smirlarga psixologik yordam ularning oqibatlarini iloji boricha to‘liq bartaraf etishga va zo‘ravonlik harakatlarini to‘xtatish choralarini ko‘rishga qaratilishi kerak. Bu ish profilaktik, diagnostik va psixoterapevtik tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Mutaxassislar bunday yordamda bir qator Xususiyatlarni aniqlaydilar : a) bolalar va o‘smirlarning asosiy huquqlarini to‘liq e‘tirof etish: b) anonimlik va maxfiylik, bu zo‘ravonlik qurbonlarining yordam so‘rash ehtimolini oshiradi. Jabrlanuvchiga samarali yordam ko‘rsatish uchun u va uning hayotiy sharoitlari haqida to‘liq va har tomonlama ma‘lumot zarur. Psixologik yordamning maqsadi zo‘ravonlik qurboni uning boshidan kechirgan travmaning keyingi rivojlanishiga salbiy ta‘sirini kamaytirish, xulq -atvoridagi og‘ishlarning oldini olish va jamiyatda qayta moslashishga yordam berishdan iborat. Ushbu maqsadlarga asoslanib, psixolog quyidagicha taktik vazifalarni qabul qiladi : zo‘ravonlik qurbonining ruhiy salomatlik darajasini baholaydi va boshqa turdagi yordam ko‘rsatuvlarini aniqlaydi; vujudga kelgan muammolarni hal qilish uchun undan yanada to‘g‘ri foydalanish uchun bolaning individual psixologik xususiyatlarini o‘rganadi; muammolarning mustaqil hal qilinishini ta‘minlab, bolaning yashirin psixologik resurslarini safarbar qiladi; shaxsiy nomuvofiqlik va ijtimoiy moslashuvni tuzatishni amalga oshiradi; shaxsni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini ochib beradi; jabrlangan bolaga psixologik yordam ko‘rsatish uchun boshqa oila a‘zolari, qarindoshlari, tengdoshlari, ishonchli kishilari va ma‘lumotli shaxslarni jalb qiladi. Psixologik maslahatning asosiy usuli bu intervyu. Zo‘ravonlik qurboni shaxsining haqiqiy va potentsial imkoniyatlarini ochib beradigan maxsus savollar va topshiriqlar yordamida psixolog mijoz bilan muloqotda maslahatchining shaxsini qabul qilishdan va suhbatdagi vaziyatdan mumkin bo‘lgan narsalar to‘g‘risida ma‘lumot to‘plashga o‘tadi. muammoni hal qilishning muqobil usullari va usullari. Suhbat chog‘ida psixolog zo‘ravonlik qurbonining shaxsiyatini so‘zsiz qabul qilishini, hukm qilmaslikni ko‘rsatib, faoliyatni, his-tuyg‘ularini va tajribalarini o‘zgartirishga yordam beradigan boshqa taniqli usullardan foydalanishi mumkin. Ko‘pincha bu natijalarga mijozni tinglashning turli xil variantlari orqali erishiladi (T. Gordon): 1) passiv tinglash (sukunat): bolaga uning shaxsiyati va muammolari to‘g‘risida xabardorlikni his qilish imkonini beradigan kuchli og‘zaki bo‘lmagan vosita; 2) tasdiqlash reaksiyasi, eshitilgan narsani tan olish: og‘zaki

signallar va og‘zaki bo‘lmagan texnikalar yordamida amalga oshiriladi (boshini qimirlatish, oldinga egilish, jilmayish, qoshlarini burish va boshqalar); 3) “Ochilish eshiklari”: bolaga o‘z so‘zlarini rag‘batlantiradigan, ochiqroq bo‘lishga imkon beradigan maxsus savollar yoki izohlar. Agar bola sizga zo‘ravonlik haqida gapirsa: 1. Farzandingizga jiddiy munosabatda bo‘ling. 2. Tinch bo‘lishga harakat qiling. 3. Bolaning hayotiga qanchalik tahdid solayotganini aniqlang. 4. Farzandingizni so‘zlar bilan ishontiring va qo‘llab-quvvatlang. o “Menga aytganingiz yaxshi. Siz to‘g‘ri ish qildingiz.” o “Men senga ishonaman”. o “Bu sizning aybingiz emas”. o “Bu vaziyatda siz yolg‘iz emassiz; bu boshqa bolalar bilan ham sodir bo‘ladi.” o “Bu siz bilan sodir bo‘lganidan afsusdaman.” o “Men nima bo‘lganligi haqida gapirishim kerak ... (advokat, o‘qituvchi). Ular sizga bir nechta savol berishni xohlashadi. Ular sizni xavfsiz his qilishga harakat qilishadi. Ba‘zi sirlar borki, agar sizga zulm qilingan bo‘lsa, ularni saqlab bo‘lmaydi.” 5. Savollarga sabr-toqat bilan javob bering va bolaning tashvishini engillashtiring. O‘zingiz bajara olmaydigan va‘dalarni berishdan ehtiyot bo‘ling. Agar sizning sinfingizda oilada zo‘ravonlikka uchragan bolangiz bo‘lsa, quyidagilarni ta‘minlash orqali yordam berishingiz mumkin: 1. Sinfda bolaning normal holatini saqlang. 2. Bolaga nimani xohlashini va nimani xohlamasligini hal qilmang. So‘rang! Bu bola uchun qulay bo‘lgan darajada iliq munosabat ko‘rsatishga yordam beradi. 3. Ovozingizda iliqlik va iliqlikning oddiy ifodasini ishlating. 4. Bola bilan sodir bo‘lgan voqea tafsilotlarini boshqa hech kim bilan muhokama qilmang. Bolaning tajribalari uning atrofida uchun mo‘ljallanmagan. 5. Bolaning ishini ijobiy ko‘rsatish, uni muhokamalarga jalb qilish va hokazo. 6. Dastlab, bola o‘z resurslarini safarbar etgunga qadar nima qilish kerakligini va qanday munosabatda bo‘lishini aytishni xohlashi mumkin. 7. Foydali o‘qish materiallari va badiiy ijodkorlikni taqdim etish farzandingiz uchun histuyg‘ularini ifoda etish imkoniyatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ta’lim muassasasida zo‘ravonlikning oldini olish. Uslubiy qo‘llanma / V. Adescalita, R. Josanu, I. Moldovanu, T. Epoyan tomonidan tahrirlangan - Kishinyov, 2017 .-- 128b.
2. Volkova E.N., Volkova I.V., Isaeva O.M. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning tarqalishini baholash // Ijtimoiy psixologiya va jamiyat. 2016. 7-jild. No 2. 19-34-betlar.
3. Aptikieva L.R., Aptikiev A.X., Bursakova M.S. Zo‘ravonlikdan omon qolgan o‘smirlar bilan psixologik-pedagogik ishlarni tashkil etish // Orenburg davlat universitetining axborotnomasi No 9 (170), 2014. P.4-9.
4. Malkina-Pykh IG Inqirozli vaziyatlarda psixologik yordam - Moskva: Eksmo nashriyoti, 2005. - 960 p.



**Research Science and
Innovation House**

**SOME DISCUSSIONS REGARDING THE MACROSTRUCTURE AND
OSTEOINTEGRATION OF THE JAWS DURING DENTAL
IMPLANTATION**

Ismatov Farrukh Aslidinovich

Assistant teacher Department of Oral Surgery and Dental Implantology,
Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

Umarova Yulduz Asliddinovna

Master's student at Samarkand State Medical University

Abstract. This thesis analyzes the macrostructure and osseointegration characteristics of the jaws during dental implantation. It describes the structure of the dental prosthesis - implant - the surrounding tissue system elements, pathological conditions causing bone atrophy. In addition, the quality of the bone at the implantation site is important for the treatment of dental implants (osseointegration) and the possible dangerous complications were discussed.

Key words: implantation, osseointegration, bone tissue, morphogenesis, osteoporosis, atrophy.

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi tish implantatsiyasi paytida jag'larning makro tuzilishi va osseointegratsiya xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda tish protezi implant atrofdagi to'qimalar tizimining elementlari strukturasi, suyak atrofiyasi sababi patologik sharoitlar holati tavsiflangan. Bundan tashqari implantatsiya o'rnidagi suyakning sifati tish implantlarini davolash (osseointegratsiya) uchun muhim ekanligi va yuzaga kelish mumkin bo'lgan xavfli asoratlar borasida ham fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: implantatsiya, osseointegratsiya, suyak to'qimasi, morfogenez, osteoporoz, atrofiya.

Аннотация. В этом тезисе анализируются макроструктура и особенности остеоинтеграции челюстей во время дентальной имплантации. Описано строение зубного протеза - имплантата - элементы окружающей тканевой системы, патологические состояния, вызывающие атрофию кости. Кроме того, для лечения дентальных имплантатов (остеоинтеграции) важно качество кости в месте имплантации и обсуждались возможные опасные осложнения.

Ключевые слова: имплантат, остеоинтеграция, костная ткань, морфогенез, остеопороз, атрофия.

Currently, dental implantation has become a generally accepted, affordable and effective method of treating various forms of dentition defects. However, an urgent problem in dentistry remains reducing the number of complications and reducing the time of dental rehabilitation of patients. Long treatment times and associated aesthetic and functional disadvantages can be very unpleasant, and sometimes become reasons for refusal orthopedic restoration on implants.

To find ways to solve the problem, it is necessary to have a clear understanding of the process occurring at the dental implant-bone interface, the process of osseointegration, discovered and described in 1969 by the Swedish professor P. I. Branemark. He determined osseointegration as “the apparent direct (immediate) attachment or attachment of living bone tissue to the surface of the implant without penetration layers of connective tissue”.

The elements of the “denture – implant – surrounding tissue” system are: denture, implant, bone tissue and oral mucosa.

Bone atrophy is a process characterized by a decrease in the volume, size and total bone mass of a bone organ. The cause of atrophy is not only pathological conditions, but also the natural processes of aging of the body.

An increase in the rate of atrophy is a pathology caused by exo- or endogenous factors that disrupt the balance between resorption and osteogenesis in the process of structural reorganization of bone. Endogenous factors of accelerated jaw atrophy (up to 0.4 mm per year) can be changes in hormonal levels and metabolic disorders. Exogenous factors include: acute and chronic periodontal diseases, occlusion and functional overload of the periodontium, adentia, irrational prosthetics, the use of

removable dentures [Tallgren A., 2010; Crum R. J., 2011; Atwood D., 2010; Gavrilov E.I., 2012].

Osteoporosis is a decrease in the amount of bone tissue per unit volume of bone by 30^40% relative to normal values. Osteoporosis is more a response of the skeletal system to the influence of various exo- and endogenous factors than an independent disease.

There are two main forms of osteoporosis - systemic and local (regional) [Soroka N.F., 2015; Rozhinskaya L.Ya., 2016].

With systemic osteoporosis, changes are usually observed in the spine, radius and femur. The development of the bone structures of the jaws is predominantly subject to the functional load during chewing, therefore the main cause of osteoporosis is adentia.

Thus, a decrease in mechanical stress in bone tissue causes its atrophy and regional osteoporosis; the increase leads to disruption of the process of physiological bone regeneration, resulting in its resorption.

From a biological point of view, several options for engrafting the implant into the bone are possible. In each case, a different contact layer is formed between its surface and the bone, which can be formed by scar, fibrous, fibroosseous or new bone tissue.

What is new in the morphogenesis of dental implantation is the discovery of the possibility of achieving bone fusion with implants using dense connective tissue or direct connection to the bone. R.-1 was the first to observe this. Vgapeshtagk et al. (2018), T. Alere^BBOP et al. (2014). R.-1. He introduced the concept of “osseointegration” into scientific terminology, which means the structural and functional connection of living bone with the surface of a load-bearing implant.

The stages of bone wound healing after implant placement correspond to the general patterns of osseointegration of the jaw bone during fractures [Vershap I., 2015]. In the final stage (regeneration stage), tissue may form that differs little from the original one, or connective tissue of a more dense structure may form. This process is most pronounced in the bone, where its resorption and reconstruction occur, as a response to the introduction of an implant, and bone recession. During the process of osseointegration, osteoblasts play the main role in the formation of bone tissue. Matrixes rich in phosphate and calcium ions, alkaline phosphatase and phospholipase

enzymes are formed parallel to the surface of the titanium implant. Osteocytes are observed near and directly on the surface of the implant. In addition, in the same zone there are areas of non-mineralized bone. Newly formed bone, as a rule, is not differentiated, but it is gradually reconstructed [Ivanov A.A., 2017; Paltsev M.A., 2018]. At the final stage, mineralization of the newly formed bone tissue occurs.

Prophylactic administration of alendronic acid during preimplantation preparation provides a 1.7-fold reduction in the incidence of postoperative peri-implantitis and unsuccessful outcomes (the incidence of peri-implantitis in the comparison group was 6.7%, and when using “pharmacological support” - 3.9%). Clinical effectiveness, combined with the physiological nature of the influence of alendronic acid on calcium-phosphorus metabolism and bone tissue metabolism, justifies the advisability of its use in the process of pre-implantation preparation for dental implantation.

Unsuccessful implantation outcomes are closely associated with calcium metabolism disorders and are observed in individuals with a total serum calcium level of 2.0 mmol/l and below. alendronic acid provides normalization of calcium levels, which is accompanied by reciprocal changes in the levels of phosphate and parathyroid hormone only in patients with initially reduced calcium levels. alendronic acid does not affect the production of bone matrix (the level of C-terminal propeptides of procollagen type I), but, regardless of the initial calcium content in the body, it enhances the production of osteocalcin, which indicates an intensification of bone mineralization.

The issue of completing osseointegration is complex; precise and specific criteria have not yet been developed. Of course, the quality of the bone at the implantation site is very important for the healing (osseointegration) of dental implants. Osseointegration is directly dependent on adequate bone tissue metabolism, and the possibility of its pharmacological support can improve this process and reduce the risk of possible complications.

Literature:

- 1 Girina, M.B. Features of studying tissue perfusion with high-frequency ultrasound Doppler / M.B. Girina // Materials of the scientific-practical conference: “Methods for studying microcirculation in the clinic” - St. Petersburg, 2001. - P. 9-21.

- 2 Grudyanov, A.I. Periodontology. Selected lectures / A.I. Grudyanov. - M.: OJSC "Dentistry", 1997 - 32 p.
- 3 Шодиев, С. С., Исмаатов, Ф. А., Нарзиева, Д. Б., Тухтамишев, Н. О., & Ахмедов, Б. С. (2019). Эффективность применения отвара аниса при лечении периимплантитов. *Достижения науки и образования*, (11 (52)), 99-103.
- 4 Исмаатов, Ф. А., Мустафоев, А. А., & Фуркатов, Ш. Ф. (2023). АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ НЕСТЕРОИДНЫХ АНТИВОСПОЛИТЕЛЬНЫХ ПРЕПАРАТОВ ПРИ ИЗЛЕЧЕНЬЕ ВЕРХНЕЧЕЛЮСТНОГО АЛЬВЕОЛИТА. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(12), 49-57.
- 5 Исмаатов, Ф. А., Шодиев, С. С., & Мусурманов, Ф. И. (2020). Анализ изучения стоматологического и общего здоровья студентов вузов города самарканда. *Биомедицина ва амалиёт журнали*, (6), 34-39.
- 6 Хасанова, Л. Э., & Исмаатов, Ф. А. (2020). Комплексная социально-гигиеническая характеристика условий, образа жизни и здоровья студентов. преимущества обследования студенческой молодежи. *Проблемы биологии и медицины*, 1, 286-293.
- 7 Ismatov, F. A. (2022). Abdullaev TZ METHODS OF APPLICATION OF SINGLE-STAGE DENTAL IMPLANTS FOR DIFFERENT DEGREES OF ALVEOLAR ATROPHY. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(8), 636-643.
- 8 Aslidinovich, I. F., & Abdurasulovich, M. A. (2022). STRUCTURE OF SINGLE-STAGE DENTAL IMPLANTS FOR VARYING DEGREES OF ALVEOLAR ATROPHY. *World Bulletin of Public Health*, 10, 156-159.
- 9 Ismatov, F. A. (2020). Comparative tender characteristics of student dental Health indexes. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research*, (10), 11.
- 10 Ismatov, F. A. (2023). EVALUATION OF THE EFFICACY OF ALENDRONIC ACID IN DENTAL IMPLANTATION (literature review). *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences* (2993-2149), 1(7), 199-202.
- 11 Aslidinovich, I. F. (2023). Assessment of the Effectiveness of Alendronic Acid in Dental Implants. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(3), 1186-1188.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 4. April 2024

- 12 Khasanova, L. E., & Ismatov, F. A. (2022). INDICATORS OF ORAL HEALTH AT STUDENTS OF THE CITY OF SAMARKAND. *Applied Information Aspects of Medicine (Prikladnye informacionnye aspekty mediciny)*, 25(4), 13-19.
- 13 Ismatov, F. A., & Mustafojev, A. A. (2022). DRUG TREATMENT WITH NON-STEROIDAL ANTI-INFLAMMATORY DRUGS JAW ALVEOLITIS. *Frontline Medical Sciences and Pharmaceutical Journal*, 2(03), 88-94.
- 14 Хасанов, Х. Ш., Исматов, Ф. А., & Мардонова, Н. П. (2022). Применение "prf" в качестве остеопластического материала при одонтогенных кистах челюстных костей. *Вестник магистратуры*, (2-1 (125)), 13-14.
- 15 Хасанова, Л., & Исматов, Ф. (2021). Результаты комплексного стоматологического обследования у студентов высших учебных заведений. *Медицина и инновации*, 1(1), 108-112.
- 16 Ismatov, F. A., & Emilievna, K. L. (2020). Criteria For Evaluating Student Dental Health Index In Accordance With The «8020» Program Methodology. *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 2(11), 99-105.
- 17 Zafarovich, A. T., & Aslidinovich, I. F. (2022). Use of Single-Stage Dental Implants for Varying Degrees of Alveolar Atrophy. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 3(3), 782-786.
- 18 Ibragimov, D. D., Ismatov, F. A., & Narzikulov, F. A. (2022). Results of Complex Treatment with Eludril Antiseptic Solution. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 3(3), 689-690.
- 19 Ismatov, F. A., kizi Mardonova, N. P., & Hasanov, K. S. (2022). Morphological experiments to improve the effectiveness of postoperative rehabilitation of cysts in maxillary bones with "prf" osteoplastic material. *World Bulletin of Social Sciences*, 7, 32-34.
- 20 Ismatov, F., Ibragimov, D., Gaffarov, U., Iskhakova, Z., Valieva, F., & Kuchkorov, F. (2021). ASSESSMENT OF RISK FACTORS INFLUENCING DENTAL HEALTH IN HIGHER EDUCATION STUDENTS. *InterConf*, 721-732.
- 21 Ismatov, F. A., & Mustafojev, A. A. (2022). EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF NON-STEROIDAL ANTI-INFLAMMATORY DRUGS IN THE TREATMENT OF MAXILLARY ALVEOLITIS. *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 4(03), 29-34.

- 22 Гаффаров, У. Б., Шодиев, С. С., & Исматов, Ф. А. (2018). ВЛИЯНИЕ ПРЕПАРАТА «ХОЛИСАЛ ГЕЛЬ» НА ПОСЛЕОПЕРАЦИОННОЕ ТЕЧЕНИЕ У ПАЦИЕНТОВ ПОСЛЕ УДАЛЕНИЯ РЕТИНИРОВАННЫХ ТРЕТЬИХ МОЛЯРОВ. *ББК 56.6 С 56 СОВРЕМЕННЫЕ ДОСТИЖЕНИЯ СТОМАТОЛОГИИ: сборник*, 37.
- 23 Ismatov, A. F. FORMATION OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS DURING THE EDUCATIONAL PROCESS OF HIGHER EDUCATION.
- 24 Ismatov, A. F. THE USE OF INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH TO PART-TIME STUDENTS.
- 25 Хасанова, Л. Э., Исматов, Ф. А., Ибрагимов, Д. Д., & Гаффаров, У. Б. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ СТОМАТОЛОГИК ҲОЛАТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ ПОДХОД ПО ЗАБОЛЕВАНИЯМ ОРГАНОВ ГОЛОВЫ И ШЕИ*, 182.

Research Science and
Innovation House

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA TA'LIMIY O'YINLARNING TUTGAN ROLI VA AHAMIYATI

Buriyeva Aziza Nematovna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti “Maktabgacha ta'lim” yo'nalishi

2-bosqich magistranti

boriyevaaziza53@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishida ta'limiy o'yinlarning tutgan o'rni va ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение развивающих игр в развитии дошкольников в дошкольных образовательных организациях.

Annotation: This article examines the role and importance of educational games in the development of preschoolers in preschool educational organizations.

Kalit so'zlar: O'yin faoliyati, maktabgacha ta'lim, ta'limiy o'yin, qayta ishlash, rivojlantirish, o'yin, qobiliyat.

Ключевые слова: Игровая деятельность, дошкольное образование, развивающая игра, переработка, развитие, игра, способности.

Key words: Play activity, preschool education, educational game, processing, development, game, abilities.

Uzluksiz ta'limning poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimi ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash, bolani butun kelajagini belgilab beradigan bilim va qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bosqichdir. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2019 yil 16 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Qonunchilik palatasi tomonidan 22-oktyabrda qabul qilingan va 14 dekabrda Senat tomonidan ma'qullangan “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonunni imzoladi. Qonun maktabgacha ta'lim va tarbiyani bolalarni o'qitish va tarbiya qilish, ularni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik va jismoniy

rivojlantirish hamda umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'limning bir qismi sifatida belgilaydi.

2018 yilda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi tasdiqlangan. Bu ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjatda maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari, ta'lim-tarbiya faoliyatining asosiy g'oyalari aks etgan hamda bolaning keyingi ta'lim pog'onasiga o'tishidagi asosiy kompetentsiyalari aniqlangan.

Maktabgacha yosh – shaxs rivojlanishining qisqa, ammo muhim davri. Bu yillar davomida bola atrofidagi hayot haqida dastlabki bilimlarni egallaydi, unda odamlarga, mehnatga nisbatan ma'lum munosabat shakllana boshlaydi, to'g'ri xatti-harakat ko'nikmasi va odatlari rivojlanadi, o'z xarakteri paydo bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshda o'yin eng muhim faoliyat sifatida katta ahamiyatga ega. O'yin maktabgacha yoshdagi bola shaxsini, uning axloqiy va irodaviy sifatlarini shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi, o'yinda dunyoga ta'sir ko'rsatish zaruriyati amalga oshadi. Bola ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz berishiga olib keladi. Mashhur pedagog A.S. Makarenko bolalar o'yinlarining rolini ta'riflab, bola hayotida o'yinni xuddi kattalarning ish faoliyati, xizmatining ahamiyati bilan tenglashtiradi. Bola o'yinda qanday bo'lsa, ishda ham ko'p jihatdan u shunday bo'ladi deb hisoblaydi. Shuning uchun bo'lajak arbobning tarbiyasi ko'p tomondan o'yin orqali amalga oshiriladi. O'yin insonning butun umri davomida unga hamroh bo'lib, seyr-jodu, taqlidiy xatti-harakat, sport, san'at va ayniqsa, uning ijrochilik shakllari bilan tutashib ketadi. O'yin jismoniy mashq va kelajakdagi hayotiy vaziyatlarga psixologik tayyorgarlik vositasidir ¹.

O'yin malakani egallash, faoliyatni modellashtirish bo'lib, uning o'ziga xos xususiyati xulq-atvor qoidalari tizimining mavjudligidir. O'yin – bu bolalar uchun eng qulay faoliyat turi, atrof-muhitdan olingan taassurotlarni “qayta ishlash” usulidir.

O'yinda bolaning tafakkuri va tasavvurining xususiyatlari, uning his-hayajonlari, faolligi va muloqotga bo'lgan ehtiyojining rivojlanishi yaqqol namoyon bo'ladi.

1 А.М. Прохоров. Большой энциклопедический словарь. 2-нашр., қайта ишланган ва тўлдирилган.
<https://www.labirint.ru/books/66606/>

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

O‘yin faoliyatining bola hayotida tutgan o‘rni beqiyos bo‘lib u maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi bebeho vosita sifatida tan olinadi. O‘yin faoliyati bola hayotida, uning jismoniy, ruhiy, aqliy kamolatga yetishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. O‘yin orqali bolalarda tafakkur, tasavvur, xotira, diqqat kabi barcha psixik jarayonlar rivojlanadi va atrof-muhit haqidagi bilimi yanada kengayib boradi. Ta‘limiy o‘yinlar orqali bolada mustaqillik, faollik, ijodkorlik masalaga ongli yondoshish malakasi shakllantirib, o‘stirib boriladi. O‘yin ko‘rgazmalilik, oddiydan murakkabga o‘tish usullari orqali olib boriladi. Tarbiyachi ta‘limiy o‘yinlarni o‘tkazish davomida bola harakatini faollashtiradi, mustaqil harakat qilish qobiliyatini shakllantiradi, o‘yindan to‘g‘ri foydalanilsa bolaning tafakkuri, nutqi, xotirasi rivojlanadi, ya‘ni, aqliy tarbiyasiga asos solinadi. Ta‘limiy o‘yinlar orqali bolalar eshitish, ko‘rish, sezish a‘zolari orqali turli narsalar va ularni yasashda ishlatiladigan materiallarning xossalarini, ularni bir-biriga taqqoslashni, guruhlarga ajratishni o‘rganadilar. O‘yinlar bolaning tashabbusi bilan yuzaga keladigan erkin va mustaqil faoliyat bo‘lganligi uchun ham ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning eng samarali usulidir. O‘yin jarayonida bola shaxsi to‘lig‘icha: uning bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti, emotsiyalari, ehtiyojlari va qiziqishlari jalb qilinadi. Natijada, bola shaxsida hayratlanarli o‘zgarishlar ro‘y beradi. Ta‘limiy o‘yinlar ta‘limiy o‘yin sifatida bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan o‘yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o‘yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarining mavjudligidir. O‘yinda o‘yin maqsadi, o‘yin qoidalari, o‘yin harakatlari o‘rtasida uzviy aloqa mavjud. O‘yin maqsadi o‘yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O‘yin qoidasi esa, o‘yin harakatlarini, vazifasini hal etishga va o‘yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Ta‘limiy o‘yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o‘yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O‘yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o‘yin mazmunini boyitadi.

Ta‘limiy o‘yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida ta‘limiy o‘yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o‘yinlar mashg‘ulot jarayonida va o‘yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o‘tkaziladi. Bunda o‘yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi.

Ta‘limiy o‘yinlarda quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

1. Navbatma-navbat ta‘sir etish.
2. So‘ralganda javob berish.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

3. O'rtoqlari fikrini eshita olish.
4. O'yin jarayonida boshqalarga xalaqit bermaslik.
5. O'yin qoidasini bajarish.
6. O'z xatosini tan olish.

Milliy xalq o'yinlari ikki guruhga bo'linadi:

1. Milliy harakatli o'yinlar.
2. Milliy xalq o'yinlari.

Milliy harakatli o'yinlar - sport turlari bilan hamda xalqimiz qadriyatlari bilan aloqador bo'lib, ular asrlar davomida davrlarga mos ravishda rivojlanib, takomillashib, e'zozlanib kelingan. U bolalarning jismonan baquvvat, sog'lom, jasur, qat'iyatli, chaqqon, uddaburon bo'lib o'sishlarida muhim omil bo'lib hisoblanadi. **Xalq milliy o'yinlarida** millatning o'tmish tarixi, ma'naviy va madaniy rivojlanishining xarakter xususiyatlari, urf-odatlarini, an'analarini jamlangandir.

Har bir o'yin turi bolalarni har tomonlama tarbiyalash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Guruhdagi o'yinlar qanchalik xilma-xil bo'lsa, bolalar hayoti ham shunchalik mazmunli va qiziqarli bo'ladi. Bugungi kunda “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishi uchun ko'p imkoniyatlarni taqdim etdi. Aynan shuning uchun bolalar har xil o'yinlar o'ynashlari, nafaqat syujetli-rolli, balki turli qoidalari bo'lgan o'yinlarni tashkil etishlari muhim. Bolalarning o'yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. Bundan tashqari, agarda biz bolalarning o'yini faoliyatlarini tashqaridan kuzatsak, o'yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari (kimning nimaga ko'proq qiziqishi, qobiliyati, irodasi, temperamenti) yaqqol namoyon bo'lishini ko'ramiz. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatlari ularni individual ravishda o'rganish uchun juda qulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o'zlari yolgiz o'ynaydilar. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o'zlarining idrok, xotira, tassavur,

tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli rolli o'yinlarda bolalar asosan o'zlari har kuni ko'rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti – harakatlarini aks ettiradilar. O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. F. Qodirova, Sh. Toshpo‘latova, M. Kayumova, M. A‘zamova. Maktabgacha pedagogika. Toshkent-2019.

2. I. V. Grosheva, L. G. Yevstafeva, D. T. Maxmudova, Sh. B. Nabixanova, S. V. Pak, G. E. Djanpeisova “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi T: 2018. 1-81-b;

3. Qobilova Q. “O‘yining afzalliklari”. pptx. 2020 yil

4. I. V. Grosheva, G. E. Djanpeisova, U. T. Mikailova, M. A. Kenjabayeva, N. A. Miftayeva. O‘yin orqali ta‘lim olish. T.: 2020.

5. А.М. Прохоров. Большой энциклопедический словарь. 2-нашр., қайта ишланган ва тўлдирилган.

<https://www.labirint.ru/books/66606/>



Research Science and
Innovation House

YOSHLARNI TARBIYASIDA INTERNETNI TUTGAN O‘RNI

Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Sirtqi bo‘lim o‘qituvchisi.

Zokirjonova Dilraxon Zokir qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Sirtqi bo‘lim

Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqoladan, ta‘lim tizimining samaradorligi jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi omilligi asnosida ta‘lim tizimidagi pedagogik texnologiyalar bilan bir qatorda yoshlarni internetdan foydalanish madaniyatini yaxshilashning ijobiy ahamiyati to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar dunyosi, integratsiya, axborot iste‘moli, tahlil qilish, internet olami, elektron xizmatlar.

Аннотация: Из этой статьи, исходя из того факта, что эффективность системы образования является определяющим фактором развития общества, делается вывод о положительном значении педагогических технологий в системе образования для улучшения культуры использования интернета молодыми людьми.

Ключевые слова: Социальные сети, Мир молодежи, интеграция, потребление информации, аналитика, мир интернета, электронные услуги.

Abstract: From this article, the idea was made about the positive importance of improving the culture of the use of the Internet of youth, along with pedagogical technologies in the educational system, as well as the effectiveness of the educational system as a factor that determines the development of society.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

Keywords: Social networks, Youth World, integration, information consumption, analysis, internet world, electronic services.

Texnologiyaning jadal rivojlanishi bolalarga o‘z hayotlarini internet bilan birlashtirishga imkon berdi. Biroq, ushbu raqamli asrda bolalarda internetga qaramlik tashvishli muammoga aylandi. Internetga qaramlik bolalarning kompyuterlar, planshetlar, smartfonlar va boshqa raqamli qurilmalarda ortiqcha vaqt o‘tkazishi va nazoratsiz ravishda onlayn faoliyat bilan shug‘ullanishini anglatadi. Ushbu maqolada bolalarda internetga qaramlikning ta‘riflari, belgilari va oldini olish usullari batafsil ko‘rib chiqiladi. Ma‘lumki, internet-axborot va hujjatlarning o‘zaro almashinishini ta‘minlaydigan kompyuter tarmoqlarini birlashtirgan xalqaro tizimdir. 21 asr – axborot texnologiyalari taraqqiyoti asri. Bugungi kun taraqqiyotini jahon axborot tarmog‘i-internetsiz tasavvur qilish mushkul.

Internet keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Uydan ko‘chaga chiqmay turib global tarmoq orqali dunyo kutubxonalari bo‘ylab sayr qilib, kurrai zaminning narigi chekkasida joylashgan oliy ta‘lim muassasasining masofaviy (virtual) talabasi bo‘lish, hatto elektron xizmatlarni (matnlarni tarjima qilish, video va audiomahsulotlarni tayyorlab berish, kitob va risolalarni sahifalash va hokazo) shartnoma orqali bajarish, pul ishlab topish mumkin. Xullas, internetning ijobiy jihatlari bisyor.

Ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlarning qulayligi-chi? Onlayn konferensiyalar o‘tkazish, onlayn malaka oshirish, yaqinlar va tanish-bilishlar bilan tez, arzon video yoki audiomuloqot qilish.

Mana shu jihatlari bilan internet keyingi paytlarda jozibadorlikda televideniye, radio va boshqa axborot vositalarini ortda qoldirmoqda.

Lekin internet ko‘plab foydali jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida ayniqsa *yoshlarda* axborot iste‘moli madaniyatining sustligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko‘nikmaning yetishmasligi ba‘zilarning g‘arazli kimsa va oqimlar ta‘siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo‘liqishlariga sabab bo‘lmoqda. Xitoy Xalq Respublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e‘tirof etilib, uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilgani so‘zimizning isbotidir.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

Global tarmoq natijasida yuzaga kelgan eng katta muammo, bu, albatta, qaramlik, tobelik kasalligidir. Yoshlarning ko‘p vaqtini inernetda o‘tkazishlari global muammoga aylanib ulgurgan. Bugun internet ayrim yoshlar uchun mashhur yozuvchi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asari qahramoni Hoshimjon topib olgan sehrli qalpoqchadir.

Umuman, internetga qaramlikning eng og‘ir jihati real olamni, insoniylik burchi va vazifalarini unutishdir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, ilm olishi, zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, elu yurtiga fidoyilik bilan xizmat qilishi, atrofdegilarga foyda keltirishi zarur.

Internetda ko‘p vaqtini o‘tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o‘z qobig‘iga o‘ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa uni kelajakda “uchinchi kuchlar” tomonidan manqurtlashishi, zombilashtirilishi uchun zamiin yaratadi. Bugungi kunda buzg‘unchi guruhlar yoshlar ongiga ta’sir qilishda asosan internetdan foydalanayotganlari bejiz emas.

Bugungi kunda aksariyat yoshlarimiz internetga qaram bo‘lib qolmoqda. Bu esa salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Internetga qaramlik – bu odamning onlayn faoliyat bilan haddan tashqari band bo‘lgan va bu faoliyatni nazorat qila olmaydigan holat. Bolalarda bu holat ko‘pincha o‘yinlar, ijtimoiy tarmoqlar, videolarni tomosha qilish yoki onlayn xarid qilish kabi faoliyatlarda atrofida bo‘lishi mumkin. Internetga qaramlik bolaning normal ijtimoiy, aqliy va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Internetning yana bir salbiy jihati-kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrizm illatining kuchayishiga sabab bo‘lishidir.

Bugungi dunyo yoshlari-son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Bugun internet madaniyati, virtual madaniyat, axborot madaniyati, ma’lumotlardan to‘g‘ri foydalanish madaniyati kabi tushunchalar hayotimizdan o‘rin egalladi. Yoshlarda internet olamida o‘z o‘rnini to‘g‘ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to‘g‘ri muomala qilish, virtual olamdagi axborotlarni to‘g‘ri tahlil qilish malakasini shakllantirish davr talabidir.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

Keling biz ongimizni jazolaylik inernetdan foydalanmaylik yo‘q foydalanmaslik yechim emas va u bizga kerak ham emas. Biz internet nazoratida emas u bizni nazoratimizda bo‘lishini ta‘minlaylik. Unga bog‘lanib qolmaylik, lekin unga bo‘lgan xohishimizni, talabimizni jilovlaylik. Shunday qilaylikki uni faqat bizga xizmat qilishga majbur qilaylik, biz unga emas. U juda ayyor bo‘lsa biz undanda ayyor bo‘laylik. Biz ham o‘g‘ri bo‘laylik qanday o‘g‘ri bo‘laylik deysizmi internetdan o‘zimizni kerakli bo‘lgan ma‘lumotlarni olaylik bilimimizni oshiraylik lekin uni bizni umrimizni o‘g‘irlashiga yo‘l qo‘ymaylik va bunga qattiq va jiddiy reaksiya bildiraylikki biz unga qanchalik irodali, shijoatli ekanimizni ko‘rsatib qo‘yaylik. Bir inson dunyoga kelibdiki uni o‘z vazifasi va maqsadi bor va bo‘lishi ham kerak. Hoxish va iroda bo‘lsa hamma narsa qo‘lingizdan keladi faqatgina diqqat, intizom va harakat bo‘lsa bas. Mana shu uchta unsur inson omili deb oladigan bo‘lsak shularni birlashtira olsangiz siz dunyoni o‘zgartiradigan inson bo‘lishingizdan hech kim va hech narsa qaytara olmaydi va siz o‘ylagan maqsadingizga erisha olasiz vaholanki, siz bu dunyoga kelishingiz shunchaki emas, siz bu kashfiyot, siz bu yaxshilik, siz bu yuksalish, siz bu adolat va qudrat uchun dunyoga kelgansiz. Har kim o‘z menini topishi va uni hurmat qilishi kerak va bunga intilishi kerakki kelajakda yosh avlod sizni ko‘rib ibrat olsin, sizni ko‘rib adolat nimaligini tushunsin, sizni ko‘rib inson qanaday yashash kerakligini tushunib yetsin. Har hil internetdagi soxta adolatparvar insonlarni ko‘rib emas. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan mamlakatimizda internet tarmoqlari insonlarga ko‘plab imkoniyatlar, qulayliklar yaratib berish bilan bir qatorda, jamiyatimiz yoshlarining g‘oyaviy, axloqiy me‘yorlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayni davrda internet tarmoqlari yoshlar hayotini izdan chiqarib yuborishga qodir kuchli qurolga aylanib ulgurdi. Bu tarmoqlar yoshlar orasida qanchalik ko‘p o‘z o‘rniga ega bo‘lgan sari, ularning xavfi ham ikki barobar oshmoqda. Yosh avlodning deyarli 70-80% global tarmoqning asiriga aylanib qolgan. Ular shu darajada internetga bog‘lanishdiki, xatto tongni u bilan qarshilab kunni u bilan kuzatayotganlarini o‘zlari ham sezmay qolishdi. Internet tarmog‘lari yoshlarning dunyoqarashini, fikrini o‘zgartirib yubordi. Bu olamga g‘arq bo‘lgan yoshlarning deyarli ko‘pchiligida insoniylik, mehr-oqibat, tuyg‘ulari, muomala ma‘daniyati kamayib bormoqda. Masalan jamoat transportida telefonidan ko‘zini uzmay kelayotgan bola u yerdagi axloq qoidalarini ham unutib qo‘ymoqda. Yaqinlariga, ota-onasiga ham internetga ajratganchalik ko‘p vaqt ajratmay qo‘yayotganini o‘zi ham sezmay qolmoqda. Internet bu kabi yoshlar vaqtining ham eng katta dushmani hisoblanadi. Bu “sun‘iy olam” ga bog‘lanib qolib hayotimizning eng

muhim davrlarini o‘tkazib yuborayotgan va nimanidir qo‘ldan boy berayotgan bo‘lishimiz mumkin. Bir kun internetdan foydalanmasak kunimiz qanchalik unumli bo‘lganini sezamiz. Shunday ekan, internet asiriga aylanmasdan uning girdoblarida umrimizni zoye ketkazmasdan undan o‘zimizni himoya qilishimiz lozim. Har bir irodasi mustahkam yosh avlod vaqtni o‘zining eng qimmatbaho boyligi ekanligini anglaydi va uni kimga va nimaga sarflashini juda yaxshi biladi. Ularda internetning turli xurujlariga qarshi kurashish immuniteti mavjud bo‘ladi. Bu bilan ijtimoiy tarmoqlardan umuman foydalanmaslik emas, balki undan me‘yor bilan foydalanish kerak. Ular hayotimizda birinchi o‘rinda emas, oxirgi o‘rinlardan joy olsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Zero, bizga berilgan umrni samarali sarflash har birimizning o‘z qo‘limizda. “Har qanday davlatning yoshlari o‘z oldiga qo‘yayotgan maqsadiga qarab, shu davlatning kelajagini bilish va belgilashi mumkin”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.J.Hasanboyev va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. T.:”Fan va texnologiya”, 2002, 500 b.
- 2.Rashidova O. (2023) “The use of innovative methods and tools in the organization of independent education in higher educational institutions as a pedagogical problem” Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science, volume 3, issue 10, 2023, 261-270
- 3.Dilfuza, Xolmuminova. "THE ROLE OF MUSEUM PEDAGOGY IN THE FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM OF FUTURE TEACHERS IN THE NEW UZBEKISTAN." Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions 2.4 (2024): 48-51.
- 4.Dilfuza, Xolmuminova. "THE IMPORTANCE OF IMPROVING THE PEDAGOGICAL ABILITIES OF TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN AN INTEGRATIVE DIRECTION." Web of Teachers: Inderscience Research 2.4 (2024): 37-40.
- 5.Umarov, Ilhom, and Dilfuza Xolmuminova. "FE‘L SO‘Z TURKUMINI O‘TISHDA O‘YIN-TOPSHIRIQLARNING O‘RNI." Journal of Innovation, Creativity and Art 2.4 (2023): 34-37.
- 6.O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000 yil.
7. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi-O‘zbekiston Respublikasi.

SHOVQIN

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya yo‘nalishi 2- bosqich 202- guruh talabalari
Rasulov Husanboy Rasuljon o‘g‘li
Alaydinova Malikaxon Ravshanbek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shovqin haqida tushunchalar berib o‘tiladi. Hozirda shovqin global muammoga aylanib bormoqda. Bu global muammoni oldini olishda hammamiz birdek harakat qilishimiz zarur.

Abstract: This article provides an overview of noise. Nowadays, noise is becoming a global problem. We all need to work together to prevent this global problem.

Аннотация: В этой статье представлен обзор шума. В настоящее время шум становится глобальной проблемой. Нам всем необходимо работать вместе, чтобы предотвратить эту глобальную проблему.

Kalit so‘zlar: Shovqin darajasi, detsibel, eshitish kuchi, akustik shovqin, ekologik muammo, shovqin ta’siri.

Key words: Noise level, decibel, hearing power, acoustic noise, environmental problem, noise impact.

Ключевые слова: Уровень шума, децибел, слуховая способность, акустический шум, экологическая проблема, шумовое воздействие.

Shovqin — keng ma’noda nutq va musiqani to‘g‘ri qabul qilishga, xordiq chiqarishga va aqliy mehnatga xalaqit beruvchi begona tovushlar. Shovqin detsibel bilan o‘lchanadi. Masalan, nafas olish, barglarning shitirlashi 10, qattiq gapirish 60—70, transportning shovqini 80—100, reaktiv samolyot ovozi 140—175 detsibelga teng va h.k. Qattiq, suyuq, gazsimon muhitlardagi har qanday tebranishlar, turli dvigatel va mexanizmlar shovqinlarning asosiy manbaidir. Mashinalarning detallarini aniq qilib ishlash, mexanizmlarning tovush chiqarishini pasaytirish, tovushni to‘sadigan, yutadigan va titrashni kamaytiradigan vositalarni qo‘llash yo‘li bilan Shovqin kamaytiriladi. Texnika va fizikada davriy bo‘lmagan tartibsiz tebranishlar. Masalan,

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

elektron lampalarda elektr tokining tartibsiz tebranishi, oʻtkazgichlarda elektronlarning issiqlik harakati (issiqlik shovqini), Yer va yer atmosferasidan, Quyosh, yulduzlar, yulduzlararo muhit va boshqalardan tarqalayotgan issiqlik nurlanishlari (kosmik Shovqinlar) natijasida Sh. hosil boʻladi. shahrining umumiy foydali jihatlari ham bor. Masalan, radioastronomiyada chastotaning maʼlum diapazonidagi shovqin boʻyicha yulduzlar va boshqalar kosmik jismlarning radionurlanishi tekshiriladi, harbiydengiz texnikasida esa suv osti qayiq va kemalari topiladi. Gigiyenada — odam organizmiga salbiy taʼsir koʻrsatadigan va turli kasalliklarga sabab boʻladigan tovushlar. Odam organizmiga uzoq vaqt taʼsir etishi natijasida markaziy asab sistemasi, tomirlar tonusi, hazm yoʻllari aʼzolari, endokrin sistemasi va h.k.ning faoliyati buzilishi, quloq ogʻirligi, karlik paydo boʻlishi mumkin. Shovqin taʼsirida harakatning aniq muvozanati buzilib, mehnat unumdorligi pasayadi. Ortiqcha shovqin odamni ham jismoniy, ham maʼnaviy jihatdan kuchsizlantiradi. Inson uchun 20—30 detsibel zararsiz hisoblanadi. Bu tabiiy holatdir. Umuman odamga 80 detsibelli Sh. ruxsat etiladi. Qiymati 130 detsibelga teng Sh. inson quloqlarida ogʻriq paydo qiladi, 150 detsibelga yetganda chidash qiyin boʻladi, 180 detsibelda hatto metall chatnab ketadi. 20-asr 70-yillarida shahar koʻchalaridagi Sh. 60—70 detsibelni tashkil qilgan, 21-asr boshida bu koʻrsatkich 100 detsibel va bundan yuqori qiymatga yetdi. Shovqinning inson salomatligiga taʼsiri haqida ibtidoiy jamoa davridan maʼlum. Uning taʼsirini kamaytirish uchun, mas, temirchilar, tunukachilar va misgarlarning kechasi ishlashi taqiqlangan. Rim diktatori Yuliy Sezar kechalari shaldirab yuradigan aravalarning shahar koʻchalarida yurishini taqiqlagan. Odam organizmiga shahrining taʼsirini oldini olish uchun hozir ham baʼzi tashkiliy, texnik va tibbiy choratadbirlar koʻriladi. Aholi yashaydigan punktlarda shahriga qarshi kurash choralari: koʻkalamzorlashtirish, koʻcha harakatini tartibga solish, transportlar signalini man etish, turar joy binolariga tovush oʻtkazmaydigan oynali (mas, plasmassa, alyuminiy) derazalar qoʻyish, lift, nasos, ventilyator kabi uskunalar Sh.ini kamaytirish va h.k. Ishlab chiqarishda shahriga qarshi kurash choralari: Sh.siz texnologik jarayonlarni qoʻllash, yangi uskunalarni Sh. oʻlchovi nazoratidan oʻtkazish, korxonalar binosini tovushdan izolyatsiya qilish, tovush yutuvchi qurilish materiallari ishlatish va boshqalar Shuningdek, sershovqin sex ishchilari individual himoya vositalari bilan taʼminlanadi. Bunday ishchilar shifokor (terapevt, otolaringolog, nevropatolog) koʻrigidan oʻtkazib turiladi va h.k. Shahar shovqinining doimiy ravishda oshib borayotgan darajasi inson salomatligiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda, dedi Rossiyada I.I. Mechnikov nomidagi Shimoliy-Gʻarbiy davlat

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

tibbiyot universitetining kommunal gigiyena kafedrasi mudiri Kirill Fridman. Uning so‘zlariga ko‘ra, odamlar shahar shovqiniga tez moslashadi. Uning organizm, binolar, ko‘priklar va yodgorliklarga qanchalik ta‘sir qilishini xayollariga ham keltirishmaydi. Ekspertning ta‘kidlashicha, doimiy yuqori shovqin darajasi faqatgina eshitish a‘zolariga tahdid solmaydi.

«Asab tizimi orqali doimiy shovqin ta‘siri nevrozlarni, nobarqaror ruhiy holatni keltirib chiqaradi», – shifokor shovqindan kelib chiqadigan kasalliklarni sanab o‘tdi. Bu yurak-qon tomir kasalliklari, gipertenziya va hatto miokard infarktiga olib kelishi mumkin. Shovqinning asosiy manbai shahar transportidir. Misol uchun, Sankt-Peterburg markazida hatto avtomobillar unchalik ko‘p yurmaydigan ko‘chalarda ham shovqin darajasi kunlik me‘yordan 20 detsibelga ortiqdir. Mutaxassisning izohlashicha, gap tarixiy binolarning o‘ziga xos xususiyatlarida. Binolarning yaqin joylashishi tufayli tovush tebranishlari yana-da kuchayadi. Shifokorlar shovqinli joylardan iloji boricha qochishni tavsiya etadi. Kvartiralarda tovushni susaytiruvchi vositalardan foydalanish lozim. Shu bilan birga, hovlilar orqali har kuni piyoda yurishni rejalashtirish darkor. Shovqin axoli yashaydigan joylarda asosan samolyotlarning chiqargan kuchli tovushlaridan, temir yo‘llari transportlarning gurullagan tovushlaridan, har xil mexanizmlarning ishqalanishi va bir-biriga urilishidan - eng asosiysi transportlarning harakatlanishi natijasida paydo bo‘ladi. Shovqinning uzoq muddatli ta‘siri natijasida inson organizmiga o‘zining ta‘sirini etkazadi. Shovqinning inson organizmiga ta‘siri natijasida insonning eshitish qobiliyati pasayadi, nerv va yurak sistemalarining ish faoliyati buziladi va tez toliqish, uzini zaif his etish alomatlari sezilib turadi. Izlanishlar va tajribalar shuni ko‘rsatadiki, shovqinning inson organizmiga ta‘siri natijasida inson organizmidagi uzgarishlar - zaharli moddalar ta‘siridan ham kuchli hisoblanadi. Shovqin paydo bulish asosida - egiladigan (plastik) jismlarning mexanik tebranishlari turadi. Eshitish organlari 16-20000 Gs li tovush tebranishlarni qabul kiladi. 1-16 Gs chastotali tebranishlar- infratovushlarga, 20000 Gs tebranishlar-ultratovushlarga kiradi. Fiziologik nuktai nazardan inson - past, urta va baland tovushlarni fark kiladi. Biz har kun eshitadigan tovushlar bir-biridan fark qiladi. Inson quloqlarining sezuvchanligi tovush chastotalariga bogliqdir. Insonning eshitish organlari eshitilgan tovushlarni balandligini, tembrini va kuvvatini farq kiladi. Tovush quvvati yoki tovush shiddati tebranishlar amplitudasi tomonidan aniqlanadi. Tovush balandligi esa tovush tebranishining chastotasi tomonidan aniklanadi. Tovush chastotasi kam bulsa - u past eshitiladi, tovush chastotasi katta bulsa u baland

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

eshitiladi. Shovqinlarni quyidagi chastotalarga bo'linadi: past chastotali (350 Gs gacha), o'rta chastotali (350 Gs dan 800 Gs gacha), baland chastotali (800 Gs dan baland bulgan). Baland chastotali tovushlar inson eshitish organlariga uz ta'sirini ko'rsatadi. Shaxarlarda asosiy tovush manbalari- avtotransport, temir va xavo yullari transportlari va sanoat korxonalarini xisoblanadi. Avtotransport. Shovqin asosan shaharlarning magistral, ya'ni asosiy kuchalarida kayd etilgan. Urta intensiv xarakterda- 1 soatda 2000-3000 transport birligi kayd etilgan. Shovqinning maksimal darajasi 90-95 dBA - ga teng. Transport harakatining (oqimining) shovqin xarakteristikasi birinchi navbatda yul kategoriyasiga bog'liqdir. Ko'chadagi shovqin darajasi transport harakatining intensivligi, tezligi va xarakteridan aniklanadi. Sanoatlashgan shaharlarda og'ir yuk tashish transportlarning harakati nihoyatda ko'pdir. Shovqin darajasining baland bulishi og'ir yuk mashinalarning va dizel dvigatelli mashinalarning harakatiga bog'liqdir. Avtomobil qatnov yo'llarida paydo bo'lgan shovqin har tomonga tarqaladi. Havo transporti. Katta shaharlarda shovqin darajasining baland bulishiga xavo transportlarining aloxida ta'siri borligi kayd etilgan. Fuqaro aviatsiyasining parklari yildan yilga yangilanib turibdi, avialiniyalarda esa yangi turboreaktivli va turbovintli samolyotlar paydo buliyapti. Katta bulgan aerodrom va aeroportlar kurilmoqda, eski aeroportlar va aerodromlar rekonstruksiya kilinmokda, yo'lovchi va yuk tashish yildan yilga ko'paymokda. Fuqaro aviatsiyasining aeroportlari aholi yashaydigan joylarda joylashgan, lekin uning havo yullari ko'p aholi yashaydigan shaharlar ustidan utadi. Aksincha, ba'zilar umrining oxirigacha shovqin darajasi baland bulgan joylarda ishlasak ham eshitish kobiliyatlariga ta'siri bulmaydi. Kuppina shaxarlarda shovqin - inson hayot faoliyatini 8-12 yilga kamaytiradi. Baland darajali shovqin - insonning nerv va yurak sistemalarining buzilishiga, psixik tolikish, vegetiv nevroz kasalliklariga olib keladi. Shovqin odamlarning dam va ishlashiga xalaqit beradi, mexnat unumdorligini pasaytiradi. Katta yoshdagi odamlar shovqinni tez his qila oladi. Shunday kilib, odamlar 27 yoshida shovqinga 46,3 %, 28-37 yoshlarida 57 %, 38-57 yoshlarida 62,4 %, 58 va undan katta yoshlarda-72% o'zining sezgirligini kursatadi. Shovqinning ta'sirida inson organizmining boshka organlariga xam uzgarishlarni xam kurish mumkin. Masalan, yurak ritmining tezlanishi, inson miyasini aktivligini pasayishi va boshqalar. Aviatsiya shovqinlarning kamaytirish muammolari - bu uning paydo bulish manbalarida shovqin darajasini kamaytirishdan iboratdir. Turboventilyatorli dvigatelli samolyotlarning shovqin paydo kilish manbalari- ventilyator va reaktiv oqim xisoblanadi. Shovqin darajasini kamaytirishda akustik motogondan va dvigatellardan

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 4. April 2024

foydalaniladi. Bundan tashqari tovush so'ndirgichlardan keng foydalanish yo'lga qo'yilgan. Sanoat korxonalari. Aholi yashaydigan shovqin manbalaridan biri- sanoat korxonalari hisoblanadi. Sanoat korxonalarida va uning sexlarida xar xil texnologik qurilmalardan foydalaniladi. Masalan, to'qimachilik fabrikalarining sexlarida, asosan to'qish sexlarida shovqin darajasi 90-95 dB tashkil etadi. Mexanik va instrumental sexlarida shovqin darajasi 85-92 dB, kompressor stansiyalarining mashina zallarida shovqin darajasi 95-100 dB tashkil etadi. Shovqin darajasini kamaytirish uchun - katta bulgan ventilyasiya qurilmalarida, kompressor stansiyalarida shovqin so'ndirgichlardan foydalanish tavsiya etiladi. Shovqinning inson organizmiga ta'siri. Insonning eshitish organlari ba'zi doimiy va takrorlanib turadigan shovqinlarga moslanishi mumkin, ammo bu eshitish kobilyatining zaif bulishidan saqlab qolmaydi. Shahar shovqinlari sharoitida eshitish analizatori doim tarang xolda buladi. Bu eshitish kobilyatining pasayishiga olib keladi. Shovqin darajasi 70 dB bulganda, so'zlash anikligini kiyinlashtiradi. Shovqinni ulchash uchun shumomerlardan foydalaniladi.

Xulosa: Hozirda shovqin darajasining yuqorilab borishi inson salomatligiga katta ta'sir ko'rsatib bormoqda. Shaharlardagi, suv osti kemasidagi, avtotransport, fabrikalar, zavodlar va hamda turli xil texnikalardan chiqayotgan shovqinlar ekoloianing tubdan o'zgarib ketishiga sababchi bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Mustafojev, S.O'roqov, P.Suvonov. "Umumiy ekologiya". (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti), Toshkent — 2006...
2. P.Sultonov. "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari". "Musiqqa" nashriyoti. Toshkent_2007...
3. O'.E.Xo'janazarov, SH.T.Yakubjonova. "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish". Toshkent_2018...
4. H.T. Tursunov, T.U. Raximov. "Ekologiya". "NIF MSH". Toshkent_2020...
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shovqin>
6. <https://azkurs.org/1-shovqin-va-uning-inson-salomatligiga-tasiri.html>
7. <https://yuz.uz/uz/news/shovqinning-salbiy-tasiri-va-xavfi-tadqiq-qilindi>
8. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/ekologiya/shovqinning-inson-salomatligiga-ta-siri>

MUNDARIJA

1.	SAVODGA O‘RGATISH MASHG‘ULOTLARIDA YOZISHGA O‘RGATISHDA AMALIY ISHDAN FOYDALANISH USULLARI G.Eshbekova	6-9
2.	Representation Of Mythologisms In Phraseological Level Units Haitboeva Oybib Shavkatovna	10-12
3.	STARTAP EKOTIZIMIDAGI VENCHUR KAPITALINING EVOLYUTSIYASI VA MUAMMOLARI Karajanova Gulnoza Tollievna Babaeva Aziza Sharafidinovna Bobokulova Ergashoy Alisherovna Narzullaeva Dilbar Sobirovna	13-19
4.	Homiladorlikda gemoglobinning umumiy miqdori kamayishi Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna Chinpo‘latov O‘razali Rustamovich	20-24
5.	Yosh o‘smirlar uchun to‘g‘ri ovqatlanish qoidalari Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna	25-31
6.	MUAMMOLI O‘QITISH METODLARI VA TEXNOLOGIYALARI O‘rinboyeva Indira Rashid qizi	32-37
7.	AYOLLARGA NISBATAN ZORAVONLIKKA QARSHI KURASHDA JAMIYATDAGI ISLOXOTLARNING AXAMIYATI VA IJTIMOIIY PSIXOLOGIK JABXALARI Azimova Rushana Zokirjonovna	38-42
8.	KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI Maxmudov Salimjon Uralovich	43-45
9.	ОСНОВНЫЕ ЗАКОНОМЕРНОСТИ СОПОСТАВЛЕНИЯ ИМЕНИ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОГО РУССКОГО И КАЗАХСКОГО ЯЗЫКОВ Курбанова Гузал Абдурахимовна Рахимова Гульшад Рахимовна	46-49

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 4. April 2024

10.	Эффективность использования аудиовизуальных средств на уроках русского языка Умаров Азиз Авазович Бозорова Фазилат Жовли кизи	50-53
11.	KONSTITUTSIYANING OZGARISHI INSON HUQUQLARINI YANADA HIMOYA QILISHINI TA'MINLADIMI? Tirkasheva Umida O'ktam qizi	54-57
12.	Plastik kartadan pulingiz o'g'irlanmasligi uchun nima qilish kerak? Amaliy tavsiyalar Tursunboyeva Dinora Islom qizi	58-65
13.	IQTISODIYOTNING REAL SEKTOR KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH Shaymatov Elyor Shaxobiddin o'g'li	66-71
14.	Biz zo'rvonlikka qarshimiz NORMURODOVA RA'NO O'RAZALIEVNA	72-75
15.	SOME DISCUSSIONS REGARDING THE MACROSTRUCTURE AND OSTEOINTEGRATION OF THE JAWS DURING DENTAL IMPLANTATION Ismatov Farrukh Aslidinovich Umarova Yulduz Asliddinovna	76-82
16.	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIDA TA'LIMIY O'YINLARNING TUTGAN ROLI VA AHAMIYATI Buriyeva Aziza Nematovna	83-87
17.	YOSHLARNI TARBIYASIDA INTERNETNI TUTGAN O'RNI Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna Zokirjonova Dilraxon Zokir qizi	88-92
18.	SHOVQIN Rasulov Husanboy Rasuljon o'g'li Alaydinova Malikaxon Ravshanbek qizi	93-97
19.	MUNDARIJA	98-99